

ISAJON SULTON IJODIDA MIFOLOGIK OBRAZLAR TALQINI

Kamola Eshpo'latova*Qarshi davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kursmagistranti***ARTICLE INFO.****Kalit so'zlar:**

Mifologiya, mif, mifologik obraz,
Humo qushi, qof tog'i poetik obraz,
Iskandar devori.

Annotatsiya

Mazkur maqolada adib Isajon Sulton ijodida mifologik obrazlar talqini haqida fikr yuritilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Miflar badiiy adabiyotning eng qadimgi janrlaridan biridir. Miflarning vujudga kelish tarixi eng qadimgi odamlar jamoasi yashagan davrlarga borib taqaladi. Ibtidoiy odamlarning tabiat va jamiyatda sodir bo'layotgan hodisalarning asl mohiyatini tushunmasligi oqibatida ular qo'rquv paydo bo'lgan va ularga sig'ina boshlagan. Ular olamning yaratilishi undagi narsa va hodisalar haqida o'z xayoliy tasavvurlari orqali hikoyalar yaratganlar.

Isajon Sulton hikoya va romanlaridagi folklor unsurlaridan biri bo'lmish mifologik obrazlar ma'lum bir poetik vazifa bajargan. Misol uchun, yozuvchining "Ozod" romanida Humo, Qof tog'i, Iskandar devori, yajuj-majujlar kabi bir qancha mifologik obrazlarni uchratamiz. Asar qahramoni Ozod asar yakunida Humo baxt qushini topadi. Bu yerdagi Humo qushi xalq og'zaki ijodida uchraydigan mifologik obrazlar Qagnus va Samandar kabi qushlardan biridir.

Humo qushi turkiy xalqlar poetik ijodida Semurg', Anqo, Davlatqushi, Baxtqushi, Bulbuligo'yo kabi bir nechta nomlari bilan ataldi. Humo—afsonaviy qush obrazi. Insonlarning abadiy baxt-saodat haqidagi orzu umidlarining ramziy ifodasi. Romanda Isajon Sulton bu qushni shunday ta'riflaydi: "U chiroyli tillarang tusda tovlanadi, atrofiga mayin uchqunchalar taratmoqda edi. Qaydandir uchib kelmadi, balki chaqmoqlarning chaqinlari aro yo'qlikdan paydo bo'ldi. Ozod yer yuzida bunday chiroyli qush borligini bilmas edi. U hech qaysi qushga o'xshamas, g'oyat kibor kichkina boshchasi adl va mag'rur va tik ko'tarilgan ozod va hur edi." [1.310]

Bu Humo qushi o'zbek xalq ertaklarida qahramonlarning ezgulik uchun yovuzlikka qarshi kurashga otlangan qahramonlarga yordamchi hamroh sifatida tasvirlangan. Ozod ham bolalik chog'larida bu qush haqida juda ko'p eshitgan. Tushlarida bu qushni ko'p marta ko'rgan. Barcha qushlar ichidan o'z baxt qushini izlagan, lekin hech bir qushni unga o'xshata olmagan edi. Asardagi dehqon obrazi ham bir umr baxt qushiga intizor hayot kechiradi. Hayotidagi har bir narsa voqiya hodisalarning o'zi baxt ekanligini anglab yeta olmagan. Ozod safar davomida ne-ne mashaqqatlar chekib yo'lida uchragan barcha narsa va hodisalardan xulosa chiqarib ularning ma'nisini anglay boshlaganda qarshisida baxt qushi paydo bo'ladi.

Yozuvchi baxt qushini qayerdandir uchib kelmadi balki chaqmoqlar chaqini aro yo'qlik ichra paydo

bo'ldi, deya ta'riflaydi. Yozuvchi bu yerda xalq poetik ijodiga xos bo'lgan mifologik obraz samandarga ishora qiladi. Samandar abadiy hayotning timsolidir. Samandar afsonalarda keltirilishicha go'yo o'tda paydo bo'lib o't ichra yashar emish. Yozuvchi asarda Humo qushini umr mashaqqatlarining baxt-u saodatga aylanishining ramzi va tangri tomonidan yaratilgan insoniyatning aqli ojizlik qiladigan mo'jizasi sifatida ta'riflagan. Adib yashashdan maqsadi nima ekanligini anglay olgan, o'zligini topa olgan insongina humo qushini uchrata olishini tasvirlagan.

Romandagi yana bir mifologik obrazlardan biri Iskandar devoridir. Afsonalarga ko'ra, Iskandar yer yuzini yovuz yajujlar to'ldasidan himoya qilish uchun bu devorni qurdirgan. Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida bu devorning qurilishi haqida batafsil ma'lumot berilgan. U yer yuzidagi yovuzlik va ezgulik zulmat va ziyo o'rtasidagi chegaradir. Bu devor bu dunyoning oxiri undan nariga hech qanday yo'l yo'q. Shu yerda Ozod ma'nolarning shakl olganini ko'ra boshlaydi. Asarda tog'lar ortidan insoniyatning azaliy dushmani yovuz afsonaviy yajuj –majujlar malaksiymo qiz Diloromning daragini eshitib yer yuziga hujum qiladi va butun mamlakatni vayron qiladi. Bunga esa insonlardagi (uzumchidagi) ochko'zlik, manmanlik kabi yovuz illatlar sababchi bo'ladi.

Bu yovuz mahluqlarni asarda yozuvchi quydagicha tasvirlaydi. Tanasi xol xol, ko'zi ko'k, yuzi qora. Yajuj-majujlar asarning turli o'rinlarida yovuzlik timsoli sifatida berilgan. "Yana taxmin qilamanki, odamlar nojoiz bir so'z aytganlarida Qof tog'i uzra momaqaldiraq gumburlashi yana bir yov bolalarining dalolati emasmikin? Joiz so'z aytilganda chaqnagan chaqmoqdan yovning yana bir bolasi o'ldimikin, deb ham o'ylayman. Bir toifa kishilarning taqdiriga ana shunday yovlarning paydo bo'lishi uchun xizmat qilish yozilgan bo'lsa ne ajab? Boshqa bir toifa esa u yovni tanigani uchun o'zga ko'rinish olmoqda. [1.219]. Bu yovlarning ko'payishiga yer yuzidagi insonlarning bilib bilmasdan qilayotgan gunohlari asosiy sababchidir. Yajuju-majujlar haqidagi hikoyalar "Tavrot"da va "Qur'oni Karim"da va yana boshqa ko'plab ilmiy va badiiy asarlarda ham keltirilgan. Xususan, Abu Rayhon Beruniyning mashhur "Al-osror al boqiya" asarida Quroni Karimdagi Iskandar va yajuj-majujlar haqidagi rivoyatning mazmuni haqida ma'lumot berilgan.

Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonida yajuj-majujlar quydagicha tasvirlaydi. Ularning qaddi bo'ylab parokanda sochlari yoyilgan, biri bir qarich bo'lsa, yana biriniki o'n quloq. Quloqlari ikki yondan chiqib yopishib qolgan, tirnoqlari dev barmog'ining o'zi. Yuzlari rangi behad sariq ko'zlari maymun ko'zining o'zi. Og'zida to'ng'izdek ikkitishi chiqqan bo'lib, ular bilan bemalol yer qazimoq mumkin. Qaysi yerga ularning tishlari tegsa qiyomat kuniga qadar u yerdan giyoh bitmaydi. Hammasining og'zi iyagida. [2.395] Yozuvchi o'z fikrini ifodalashda bu mifologik obrazdan bosqin va ofat dahshat ramzi sifatida foydalangan.

Isajon Sulton insonlar va yovuz mahluqlardan insoniyatni ajratib turuvchi tog'ni Qof tog'i deb ataydi. Afsonalarda keltirishicha Qof tog'i ya'ni, Ko'hi Qof dunyoning bir chekkasida joylashgan bo'lib, bu yerni go'zal parilar va farishtalar makon qilgan. Yozuvchining "Manzil" hikoyasida bu tog'ni shunday tasvirlagan. "Yana ancha yo'l bosib o'tganimizdan keyin tog'lar bilan o'ralgan bir vodiya yetib bordik. Ko'llari shishaday tiniq, odamlari g'oyat go'zal edi. Keyin bilsak, bu yurtning oti Ko'hi Qof, bular esa odamzod emas, parilar ekanlar. [3.24] Bu hikoyaning sujeti "Ozod" romani sujetiga monand tarzida yaratilgan. Ikkala asarda ham o'z baxtini izlab yo'lga chiqqan yosh yigitlar va yo'lda ular boshidan kechirgan qiyinchiliklar va safar davomidagi voqiyalar bayon etilgan.

Yozuvchining "Bog'i Eram" hikoyasida ham bir nechta mifologik obrazlar ko'rishimiz mumkin. Asarning nomlanishidayoq mifologiyaga aloqadorligini sezishimiz mumkin. Bog'i Eramni rivoyatlarga ko'ra, xudolikni da'vo qilgan Shaddod ismli podsho qurgan. Shayx Alouddin Mansur ma'lumotiga ko'ra, bu afsonaviy bog' 300 yil mobaynida qurilgan. Bu bog'ni qurdirishni boshlagan podshoning o'zi ham uni tugallanishini ko'rish nasib qilmagan. U qo'shin to'plab, bog'ni ko'rishga ketayotgan paytda Alloh bo'roniga duch keladi va yo'lda vafot etadi. Hikoyada yana bir mifologik obraz umr daraxti haqida ham fikr yuritiladi. Umr daraxtining har bir bargi – bir insonning hayoti. U to'kilib ketsa, inson umri ham yakun topadi. Asardagi qahramon bir lahza hushini yo'qotgan paytda Bog'i Eramda

paydo bo'ladi hamda undagi doimo yam- yashil bo'lib turadigan umr daraxtini ko'radi. Yozuvchi bu hikoyasi orqali kitobxonga inson umri o'tkinchi ekanligini, uni har bir daqiqasidan umumli foydalanish zarur ekanligini, uni bekorchi ishlarga sarflamaslik lozimligini ta'kidlaydi. Bu hikoyada ham yana bir bor Semurg' mifologik obrazga duch kelamiz. Bu – Semurg' obrazi. Semurg' qushi bu hikoyada ham barcha ertaklarda o'qiganmiz kabi tasvirlanadi. Bu afsonaviy qush ezgu niyatli pok qalbli barcha ertak qahramonlariga ko'mak beradi. Hikoyada adib jannatni tasvirlash jarayonida, qahramon ko'ziga Semurg' qushi ko'rinadi. Adib hikoyada bu qushni ezgulk timsoli sifatida tasvirlaydi. Yana bir hikoyada esa adib bu qushni ikki olamni bog'lab turuvchi ilohiy qush deb ta'rif beradi. Yozuvchi barcha asarlarida Semrug' mifologik obrazidan shakl o'zgargan ammo g'oya saqlangan holda foydalangan.

Isajon Sulton asarlari tarkibida uchraydigan Xizr (a.s.), Muso (a.s.) yoki Iskandar Zulqarnayn kabi turli tarixiy obrazlarning turli xil epizodlaridan ham foydalangan. Bundan tashqari adibning katta-kichik hajmli boshqa asarlarida ham turli mumtoz va zamonaviy adiblar asarlaridan olingan ko'chirmalar uchraydi. Xulosa qilib aytganda, Isajon Sulton asarlarida mifologik obrazlarga murojaat qilganida xalq og'zaki ijodining ma'naviy boy talqinlaridan mahorat bilan foydalangan, hamda asar matning mazmunli, serqatlam bo'lishiga erishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Isajon Sulton. Genetik – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.- 382.
2. Alisher Navoiy. Xamsa. Saddi Iskandariy. Toshkent: Yangi asr avlodi. 2013-y 395-bet.
3. I.Sulton. Hikoyalar. I jild. – Toshkent: G'afur G'ulom NIMU, 2017. 42-bet.
4. Jumaniyozov Bahromboy. O'zbek xalq eposida yalmog'iz obrazi. Fil.fan.nom. ...diss.avtoref. – Toshkent, 1996.